
"Madadkor" mahalla yoshlari stol tennisi bo'yicha g'oliblikni qo'lga kiritishdi

Yoshlarni sportga qiziqtirish, ularning vaqtlarini mazmunli o'tkazish, sport bilan muntazam shug'ullanish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish hamda ommaviy sportni rivojlantirishga qaratilgan musobaqa "Mahalla" xayriya jamoat fondi, sportni rivojlantirish, xalq ta'limi bo'limlari kabi hamkor tashkilotlar tashabbusligida tashkillandi.

Musobaqa nizomiga ko'ra 13-16 yoshdagi mahalla o'smir yigit-qizlari stol tennisi bahslarida faol kurashdilar.

Yakuniy natijalarga ko'ra, "Madadkor" mahallasi yoshlari birinchilikni qo'lga kiritishdi. "Beglar" mahallasi yoshlari 2-, "O'zbekiston" mahallasi yoshlari esa 3-o'ringa munosib topildilar. Tadbir so'ngida g'olib va sovrindorlar diplom hamda esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi, shuningdek, musobaqaning viloyat bosqichida ishtirok etuvchi sportchi yoshlar ham aniqlandi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2022-10-25 16:45:05